Sharifov Muxriddin Kamoladdin o‘g‘li (Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti tayanch doktoranti; muxriddinsharifov98@gmail.com)

MAXSUS FANLARNING AXBOROT-DIDAKTIK TA’MINOTI SAMARADORLIGINI TA’MINLOVCHI PEDAGOGIK SHART-SHAROITLAR

Annotatsiya. *Maqolada maxsus fanlarning axborot-didaktik ta’minotini kasbiy funksiyalar asosida loyihalash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar tizimi asoslanadi. Muammo shundan iboratki, nazariy asoslangan yechim joriy etilgach, ko‘pincha, kutilgan natijani bermaydi, sabab esa yechimning o‘zida emas, uni qo‘llash muhitida bo‘ladi. Tizimli va faoliyatli yondashuvlar asosida hujjatli tahlil, qiyosiy tahlil va pedagogik modellashtirish qo‘llanildi. To‘rt guruhga birlashtirilgan o‘n to‘rtta shart ajratilib, har biri uchun ta’minlash mexanizmi belgilandi. Ilmiy hissa shartlarni deklarativ tavsifdan ta’minlash mexanizmi darajasiga ko‘tarishdan iborat.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy ta’lim, maxsus fanlar, axborot-didaktik ta’minot, pedagogik shart-sharoit, kasbiy funksiya, ta’minlash mexanizmi.*

Шарифов Мухриддин Камоладдин угли (базовый докторант Института развития профессионального образования; muxriddinsharifov98@gmail.com)

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ ИНФОРМАЦИОННО-ДИДАКТИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ДИСЦИПЛИН

Аннотация. *В статье обосновывается система педагогических условий, необходимых для проектирования информационно-дидактического обеспечения специальных дисциплин на основе профессиональных функций. Проблема в том, что теоретически обоснованное решение после внедрения нередко не дает ожидаемого результата, причем причина заключается не в самом решении, а в среде его применения. На основе системного и деятельностного подходов применены документальный и сравнительный анализ, педагогическое моделирование. Выделены четырнадцать условий в четырех группах, для каждого определен механизм обеспечения. Научный вклад состоит в переводе условий с уровня декларативного описания на уровень механизма обеспечения.*

Ключевые слова: *профессиональное образование, специальные дисциплины, информационно-дидактическое обеспечение, педагогическое условие, профессиональная функция, механизм обеспечения.*

Sharifov Muxriddin Kamoladdin ugli (basic doctoral student, Institute for Vocational Education Development; muxriddinsharifov98@gmail.com)

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE EFFECTIVENESS OF INFORMATION-DIDACTIC SUPPORT OF SPECIALISED DISCIPLINES

Annotation. *The article substantiates a system of pedagogical conditions required for designing the information-didactic support of specialised disciplines on the basis of professional functions. The problem is that a theoretically grounded solution, once introduced, often fails to produce the expected result, and the reason lies not in the solution itself but in the environment of its application. Based on the systems and activity approaches, documentary and comparative analysis and pedagogical modelling were applied. Fourteen conditions in four groups were identified and a provision mechanism was defined for each. The contribution consists in moving the conditions from declarative description to the level of a provision mechanism.*

Keywords: *vocational education, specialised disciplines, information-didactic support, pedagogical condition, professional function, provision mechanism.*

Kirish. Pedagogik amaliyotda ko‘p uchraydigan holat shundan iboratki, nazariy jihatdan asoslangan yechim joriy etilgach kutilgan natijani bermaydi. Buning sababi, odatda, yechimning o‘zida emas, uni qo‘llash muhitida bo‘ladi: yechim muayyan shart-sharoitlarga mo‘ljallangan, amaliyotda esa bu shartlar ta’minlanmagan. Shu sababli shart-sharoitlarni aniqlash alohida vazifa sifatida qo‘yiladi va u yechimni ishlab chiqishdan oldinga suriladi.

Ilmiy muammo shundan iboratki, maxsus fanlarning axborot-didaktik ta’minotini kasbiy funksiyalar asosida loyihalash uchun zarur shart-sharoitlar tizimi aniqlanmagan, mavjud ishlarda esa ular umumiy tavsiya darajasida bayon etilib, ta’minlash mexanizmi ko‘rsatilmaydi. Tadqiqotning maqsadi mazkur tizimni asoslash va har bir shart uchun ta’minlash mexanizmini belgilashdan iborat. Obyekt ta’minotni loyihalash jarayoni, predmet esa uning samaradorligini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlardir. Ilmiy yangilik shartlarni deklarativ tavsifdan ta’minlash mexanizmi darajasiga ko‘tarishda namoyon bo‘ladi; amaliy aha-

miyati natijalardan o‘quv-dasturiy hujjatlarni yangilashda va malaka oshirish dasturlarini loyihalashda foydalanish imkoniyatidan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Falsafiy adabiyotda shartlar ikki turga ajratiladi: hodisaning mavjudligi ular orqali ta’minlanadigan shartlar yetarli, ular orasidan eng zarurlari ajratib olinganda esa zaruriy deb ataladi [1;12-b.]. Pedagogikada shart-sharoit deganda ta’limiy maqsadga erishishga yo‘naltirilgan pedagogik xarakterdagi choralar majmui tushuniladi [1;14-b.]. Bu talqin shart-sharoitni tasodifiy holat emas, maqsadli tanlash natijasi sifatida ko‘rsatadi.

Shart-sharoit kategoriyasi pedagogik tizim tushunchasi bilan bevosita bog‘liq: N.V.Kuzmina tizim faoliyati tashqi va ichki omillar majmuyiga bog‘liqligini ko‘rsatgan [2;45-b.], V.P.Bespalko esa har bir texnologik yechim uchun uning amal qilish sharoitini belgilash talabini qo‘ygan [3;78-b.]. Milliy pedagogikada J.A.Hamidov shart-sharoitlar masalasiga alohida bob bag‘ishlagan [4;112-b.], M.B.Urazova pedagogning loyihalash faoliyatiga tayyorgarligini [5;67-b.], Q.T.Olimov o‘quv adabiyotini yaratish asoslarini [6; 34-b.], Z.Sh.To‘xtayeva esa majmuaning invariant va variativ qismlarga ajratilishini tadqiq etgan [7;88-b.]. Xorijiy ishlarda muammoning boshqa qirrasi ochilgan: texnologiyalarni qo‘llashga asosiy to‘siq texnik jihozning yo‘qligi emas, vositani didaktik maqsad bilan bog‘lash ko‘nikmasining yetishmasligi ekani qayd etilgan [8;6-b.].

Keltirilgan ishlarning kuchli tomoni shundan iboratki, ularda shart-sharoitlarni aniqlash mustaqil vazifa sifatida qo‘yilgan. Zaif tomoni ikkita: aksariyat ishlarda shartlar subyektiv-faoliyatli xarakterga ega bo‘lib, moddiy va axborot komponentlari qamrab olinmagan, shuningdek, shartlar talab shaklida bayon etilib, ularni ta’minlash mexanizmi ko‘rsatilmagan. Aynan shu ikki jihat mazkur tadqiqotning ilmiy bo‘shlig‘ini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy-loyihaviy xarakterga ega. Metodologik asos sifatida tizimli va faoliyatli yondashuvlar qabul qilindi: birinchisi ta’minotni o‘zaro bog‘liq komponentlar majmui sifatida ko‘rish, ikkinchisi shart-sharoitlarni o‘quvchi va pedagog faoliyatiga nisbatan belgilash imkonini beradi. Qo‘llanilgan metodlar: nazariy tahlil; o‘quv-dasturiy hujjatlarni malaka talabi bilan solishtirish yo‘li bilan hujjatli tahlil; qiyosiy tahlil; pedagogik modellashtirish. Materialni namunaviy o‘quv reja va fan dasturi, malaka talabi hamda ilmiy manbalar tashkil etdi.

Shart-sharoitlarni aniqlash to‘rt qadamda amalga oshirildi: qarama-qarshilikni bartaraf etuvchi minimal shartni belgilash; shartning huquqiy amalga oshiriluvchanligi, resurs neytralligi va pedagog tayyorgarligiga muvofiqligini tekshirish; takrorlanuvchi shartlarni guruhlarga ajratish; har biriga ta’minlash mexanizmini biriktirish.

Tahlil va natijalar. Tizimni asoslashdan avval, amaldagi holat baholandi. Fan dasturi 108 soatga mo‘ljallangan bo‘lib, undan 28 soat mustaqil ta’limga ajratilgan; malaka talabida yettita kasbiy kompetensiya va har biri uchun ikkitadan to‘rttagacha baholash indikatori belgilangan.

Solishtirish dasturning mazmuniy salohiyati yuqori ekanini ko‘rsatdi: unda o‘n yettita amaliy ko‘nikma va o‘n bitta tashxis vaziyati sanab o‘tilgan bo‘lib, ular kasbiy funksiyalarga bevosita mos keladi. Biroq material kompetensiya kodlari bilan bog‘lanmagan, baholash umumiy formula bilan chegaralangan, mustaqil ta’lim soatlari bo‘yicha esa na topshiriq turi, na resurs, na baholash usuli ko‘rsatilgan. Demak, huquqiy imkoniyat va mazmuniy salohiyat mavjud, biroq bog‘lovchi mexanizm yo‘q, shu sababli ajratilgan shartlarning aksariyati yangi resurs yaratishga emas, mavjud materialni kasbiy funksiya bilan bog‘lashga qaratilgan.

An’anaviy pedagogik adabiyotda shart-sharoitlar tashkiliy-pedagogik, psixologik-pedagogik va didaktik guruhlarga ajratiladi, biroq o‘rganilayotgan masalada loyihalash obyekti pedagogik jarayon bilan chegaralanmasdan moddiy va axborot resurslarini hamda amalga oshiruvchilarning tayyorgarligini ham qamrab oladi. Shu sababli to‘rt guruhli tasnif qo‘llanildi va natijada o‘n to‘rtta shart-sharoit ajratildi (1-jadval).

1-jadval

Axborot-didaktik ta’minotni loyihalashning pedagogik shart-sharoitlari

Guruh	Raqami	Shart-sharoit mazmuni	Ta’minlash mexanizmi
I. Tashkiliy-me’yoriy	1.1	Kirish ma’lumoti sifatida kasbiy kompetensiya	Dasturga kompetensiya kodlari ustuni
	1.2	Dasturga o‘zgartirish kiritish imkoniyati	Soatlarni 20 foizgacha qayta taqsimlash
	1.3	Korxona bilan hamkorlikning rasmiy tartibi	Amaliyot va baholash bo‘yicha kelishuv

II. Didaktik-metodik	2.1	Loyihalash birligi sifatida kasbiy funksiya	Kasbiy funksiyalar xaritasi
	2.2	Resurs turining faoliyat turiga muvo-fiqligi	Muvofiqlashtirish mezonlari jadvali
	2.3	Nazariy, virtual va real muhitlarning sin-xronligi	Yagona taqvim-mavzu grafigi
	2.4	Baholashning faoliyat mahsulotiga ko‘chirilishi	Amaliy topshiriq va rubrika
III. Subyektiv	3.1	Pedagogning loyihalash kompetensi-yasi	Loyihalash tartibi va tavsiyalar
	3.2	Ustaning baholashdagi ishtiroki	Ekspert baholash varaqasi
	3.3	Pedagog va usta hamkorligi reglamenti	Vazifalar taqsimoti va baho tartibi
IV.Moddiy-texnik va axborot	4.1	Resurslarga uzluksiz kirish	Mobil resurs va oflayn nusxa
	4.2	Ustaxonaning jihozlanishi	Jihozlarni kompetensiyalar bilan solish-tirish
	4.3	Simulatsion va virtual vositalar	Virtual trenajyor yoki interaktiv model
	4.4	Yangilash va saqlash tartibi	Raqamli saqlash joyi va yangilash dav-riyligi

Jadvalning oxirgi ustuni alohida ahamiyatga ega: shart-sharoit deklarativ tarzda emas, amalga oshiriladigan harakat ko‘rinishida bayon etiladi, aks holda, u tavsiya darajasida qolib ketadi. Birinchi guruh yechimning huquqiy amalga oshiriluvchanligini ta’mi,nlaydi: 1.1-shart loyihalashning kirish ma’lumotini o‘zgartiradi, 1.2-shart esa buning huquqiy maydonini belgilaydi, chunki namunaviy o‘quv rejada soatlarni yigirma foizgacha qayta taqsimlash imkoniyati ko‘zda tutilgan va bu yangi me’yoriy hujjat qabul qilishni talab qilmaydi.

Ikkinchi guruh eng katta yukni ko‘taradi. 2.1-shartning ta’minlanishi kasbiy funksiyalar xaritasini tuzishdan boshlanadi va bu tartib dasturning mavjud mazmunini bekor qilmay, uni yangi mantiq bo‘yicha qayta guruhlaydi. 2.2-shartni misolda ko‘rish mumkin: texnik qarov algoritmik-amaliy vazifa bo‘lib, unga interaktiv texnologik xarita mos keladi; nosozlikni belgilar bo‘yicha aniqlash esa diagnostik vazifa bo‘lib, u kasbiy keys va nosozlik belgilari bankini talab qiladi. Ikkala vazifa uchun bir xil resurs turini qo‘llash didaktik xatolik hisoblanadi. 2.3-shart uch muhitning vaqt bo‘yicha muvofiqligini, 2.4-shart esa baholashning me’yoriy hujjat bilan bog‘lanishini ta’minlaydi.

Uchinchi guruhda 3.1-shart eng muhim hisoblanadi, chunki texnologiyalarni qo‘llashga asosiy to‘siq vositani didaktik maqsad bilan bog‘lash ko‘nikmasining yetishmasligidir [8;6-b.]. To‘rtinchi guruhda muassasalarning jihozlanish darajasi turlicha bo‘lgani sababli 4.2- va 4.3-shartlar bir vaqtda ta’minlanishi mumkin emas, shu bois ta’minotning invariant qismi ushbu vositalarsiz ham ishlaydigan qilib loyihalanadi. Tasniflash mezoni sifatida shartning yo‘qligi mexanizm ishlashiga qanday ta’sir ko‘rsatishi olindi (2-jadval).

2-jadval

Shart-sharoitlarning ahamiyat darajasi bo‘yicha tasnifi

Daraja	Shart-sharoitlar	Yo‘qligining oqibati
Zaruriy	1.1, 2.1, 3.1	Mexanizm umuman ishga tushmaydi
Yetarli	1.2, 1.3, 2.2, 2.3, 2.4, 3.2, 3.3, 4.1	Mexanizm ishlaydi, biroq natija chala bo‘ladi
Optimallashtiruvchi	4.2, 4.3, 4.4	Natija olinadi, biroq samaradorlik past-roq bo‘ladi

Zaruriy shartlarsiz mexanizm ishga tushmaydi, agar kirish ma’lumoti kompetensiya kodi bo‘lmasa yoki loyihalash birligi sifatida kasbiy funksiya qabul qilinmasa, butun zanjir ma’nosini yo‘qotadi. Yetarli shartlar bo‘lmasa mexanizm ishlaydi, lekin natija chala bo‘ladi. Optimallashtiruvchi shartlar esa samaradorlikni oshiradi, ammo ularsiz ham tizim ishlaydi. Ushbu mezon shartlarni obyektiv tasniflash va tajriba-sinov bosqichida tekshirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijasida maxsus fanlarning axborot-didaktik ta’minotini kasbiy funksiyalar asosida loyihalash uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlar tizimi asoslandi. Tizim to‘rt guruhga birlashtirilgan o‘n to‘rtta shartdan iborat: tashkiliy-me’yoriy shartlar yechimning huquqiy maydonini, didaktik-metodik shartlar uning ichki mantig‘ini, subyektiv shartlar amalga oshiruvchilarning tayyorgarligini, moddiy-texnik va axborot shartlari esa resurs bazasini belgilaydi.

Har bir shart uchun ta'minlash mexanizmi belgilandi va bu ishning asosiy ilmiy hissasini tashkil etadi: shart talab shaklida emas, amalga oshiriladigan harakat ko'rinishida bayon etilganda u tavsiya darajasidan tartib darajasiga ko'tariladi. Shartlarning ahamiyat darajasi bo'yicha tasniflanishi muassasaga birinchi navbatda qaysi shartlarni ta'minlash lozimligini belgilash imkonini beradi. Amaldagi holat tahlili shuni ko'rsatdiki, ajratilgan shartlarning aksariyati yangi resurs yaratishga emas, mavjud materialni kasbiy funksiya bilan bog'lashga qaratilgan, bu esa ularni joriy etish xarajatini kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Ипполитова Н., Стерхова Н. Анализ понятия «педагогические условия»: сущность, классификация. General and Professional Education, 2012, № 1, с. 8–14.

(2). Кузьмина Н.В. Методы системного педагогического исследования. Москва, "Народное образование", 2002, 208 с.

(3). Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. Москва, "Педагогика", 1989, 192 с.

(4). Hamidov J.A. Kasb ta'limida pedagog kadrlar tayyorlashga kompyuterli o'qitish vositalari majmualarini yaratish texnologiyasi. Ped. fan. dokt. (DSc) diss., Toshkent, 2016, 334 bet.

(5). Urazova M.B. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligini loyihalash. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2018, 176-bet.

(6). Olimov Q.T. O'quv adabiyotlarini yaratish nazariyasi va metodikasi. Toshkent, "Fan", 2010, 176-bet.

(7). To'xtayeva Z.Sh. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Buxoro, "Durdona", 2020, 196-bet.

(8). Sephokgole R.D. et al. Investigating teachers' integration of technology in automotive vocational education. Int. J. Learning, Teaching and Educational Research, 2024, vol. 23, № 6, pp. 1–18.

Isakov Zakirjon Soliyevich (Qo'qon davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi)

PROFESSOR NOSIRJON ULUQOVNING PEDAGOGIK, ILMIY VA USTOZLIK FAOLIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Namangan davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori Nosirjon Uluqovning pedagogik faoliyati, ustozi Ernest Begmatov bilan hamkorlikdagi onomastik tadqiqotlari, gidronimika sohasidagi ilmiy izlanishlarining maqsadi, vazifalari, tadqiq usullari va ilmiy yangiligi, shuningdek, uning bevosita rahbarligida yetishib chiqqan shogirdlarning ilmiy ishlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *onomastika, gidronimika, gidronimik indikator, toponimik indikator, gemeronim, ilmiy maktab, ustozlik, dissertatsiya.*

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ, НАУЧНАЯ И УЧЕБНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПРОФЕССОРА НОСИРЖОНА УЛУКОВА

Аннотация. *В данной статье анализируется педагогическая деятельность профессора Наманганского государственного университета, доктора филологических наук Насиржона Улукова, его ономастические исследования в сотрудничестве с научным руководителем Эрнестом Бегматовым, цели, задачи, методы исследования и научная новизна его исследований в области гидронимики, а также научная работа его учеников, выполненная под его непосредственным руководством.*

Ключевые слова: *ономастика, гидронимика, гидронимический индикатор, топонимический индикатор, гемероним, научная школа, наставничество, диссертация.*

PEDAGOGICAL, SCIENTIFIC AND TEACHING ACTIVITIES OF PROFESSOR NOSIRJON ULUKOV

Annotation. *This article analyzes the teaching activities of Namangan State University professor and Doctor of Philology Nosirjon Ulukov, his onomastic research in collaboration with his supervisor Ernest Begmatov, the goals, objectives, research methods and scientific novelty of his research in the field of hydronymics, as well as the research work of his students conducted under his direct supervision.*

Keywords: *onomastics, hydronymics, hydronymic indicator, toponymic indicator, hemeronym, scientific school, mentoring, dissertation.*

Kirish. O'zbek tilshunosligida onomastika, xususan, gidronimika va toponimika sohalarining rivojlanishida Namangan davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori Nosirjon Uluqovning xizmatlari alohida o'rin tutadi. Olim nafaqat tadqiqotchi, balki mohir pedagog va yosh olimlarni tarbiyalagan ustoz sifatida ham tanilgan. Mazkur maqolada uning pedagogik faoliyati, ustozi Ernest Begmatov bilan hamkorlikdagi ilmiy ishlari, gidronimika bo'yicha olib borgan tadqiqotining ilmiy-metodologik asoslari hamda shogirdlarining ilmga qo'shgan hissasi yoritiladi.

Tadqiqotning maqsadi N.Uluqovning pedagogik, ilmiy va ustozlik faoliyatini tizimli tahlil qilish, uning o'zbek onomastikasi, xususan, gidronimika taraqqiyotiga qo'shgan hissasini aniqlash hamda ilmiy